Qodirova Hulkaroy Mahmudjon qizi
“TURON” universiteti Andijon filiali 102-guruh magistranti

O‘QUV JARAYONINI SAMARALI BOSHQARISHDA O‘QUVCHILARNING O‘QUV MOTIVINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘quv jarayonini boshqarishning psixologik-pedagogik jihatlari va o‘quvchilarning motivatsion sohasini shakllantirish muammolari tadqiq etiladi. Maqolada motivatsiya turlari (ichki va tashqi), o‘quv faoliyatining drayverlari va zamonaviy ta’limda motivatsiyani pasaytiruvchi omillar tahlil qilingan. Shuningdek, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi subyekt-subyekt munosabatlarining motivni rivojlantirishdagi o‘rni ilmiy asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: O‘quv motivi, menejment, kognitiv rivojlanish, ichki motivatsiya, tashqi motivatsiya, o‘z-o‘zini determinatsiya qilish, pedagogik akmeologiya, refleksiv tahlil.

РАЗВИТИЕ УЧЕБНОЙ МОТИВАЦИИ УЧАЩИХСЯ В ПРОЦЕССЕ ЭФФЕКТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫМ ПРОЦЕССОМ.

Аннотация: В данной статье исследуются психолого-педагогические аспекты управления учебным процессом и проблемы формирования мотивационной сферы учащихся. Анализируются виды мотивации (внутренняя и внешняя), драйверы учебной деятельности и факторы, снижающие мотивацию в современном образовании. Также научно обоснована роль субъект-субъектных отношений между учителем и учеником в развитии учебных мотивов.

Ключевые слова: Учебный мотив, менеджмент, когнитивное развитие, внутренняя мотивация, внешняя мотивация, самодетерминация, педагогическая акмеология, рефлексивный анализ.

DEVELOPING STUDENTS' LEARNING MOTIVATION IN THE EFFECTIVE MANAGEMENT OF THE EDUCATIONAL PROCESS.

Abstract: This article examines the psychological and pedagogical aspects of managing the educational process and the problems of shaping the motivational sphere of students. Types of motivation (intrinsic and extrinsic), drivers of learning activities, and factors that decrease motivation in modern education are analyzed. Furthermore, the role of subject-to-subject relationships between teacher and student in the development of motivation is scientifically substantiated.

Keywords: Learning motivation, management, cognitive development, intrinsic motivation, extrinsic motivation, self-determination, pedagogical acmeology, reflexive analysis.

Zamonaviy global ta’lim makonida o‘quv jarayonini boshqarish shunchaki metodik koordinatorlik emas, balki inson kapitalini rivojlantirishning strategik poydevori hisoblanadi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) 2030-yilgacha mo‘ljallangan Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (SDG 4) — "Sifatli ta’lim" (Quality Education) tamoyili o‘quvchilarda nafaqat

savodxonlikni, balki umrbod ta’lim olish motivatsiyasini (Lifelong Learning) shakllantirishni ustuvor vazifa qilib belgilaydi.[1]

UNESCOning "Ta’limning kelajagi" (Futures of Education) hisobotida ta’kidlanganidek, bugungi pedagogik menejment o‘quvchini "passiv iste’molchi"dan "faol bilim yaratuvchisi"ga aylantirishi shart. Bu transformatsiyaning kaliti — o‘quv motivatsiyasidir. O‘quv jarayonini samarali boshqarish (Educational Management) — bu o‘quvchining ichki resurslarini, uning intilishlari va kognitiv ehtiyojlarini BMT tomonidan ilgari surilayotgan "inklyuzivlik va tenglik" tamoyillari asosida faollashtirish demakdir.[2]

Motivatsiya — shaxsni harakatga keltiruvchi va maqsadga yo‘naltiruvchi murakkab psixologik drayverdir. Garchi ushbu muammo A. Maslow, L. Vygotskiy va E. Deci kabi klassik olimlar tomonidan fundamental o‘rganilgan bo‘lsa-da, UNESCOning raqamli transformatsiya davri uchun ishlab chiqqan tavsiyalarida o‘quv motivatsiyasini rivojlantirishda "Gibrid ta’lim" va "Ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalar" (SEL - Social Emotional Learning) o‘rni alohida urg‘ulanadi.

Ushbu masala Yangi O‘zbekistonning ta’lim strategiyasida alohida o‘rin tutadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim sohasidagi farmonlari va "O‘zbekiston — 2030" strategiyasida ta’lim mazmunini tubdan isloh qilish, o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash va mustaqil bilim olish ko‘nikmalarini rivojlantirish bosh maqsad qilib olingan. Bugungi kunda mamlakatimizda joriy etilayotgan Milliy o‘quv dasturi o‘quvchini passiv axborot qabul qiluvchidan, jarayonning faol subyektiga aylantirishni ko‘zda tutadi. Binobarin, o‘quv jarayonini samarali boshqarish — bu o‘quvchining ichki resurslarini, uning kognitiv ehtiyojlari va qiziqishlarini zamonaviy pedagogik menejment asosida faollashtirish demakdir.

UNESCOning "Ta’limning kelajagi" (Futures of Education) hisobotida ta’kidlanganidek, raqamli transformatsiya davrida bilimlar eskirish sur’ati tezlashgan bir paytda, o‘quvchining ichki motivatsiyasi ta’lim barqarorligining yagona kafolatidir.[3] O‘zbekistonning umumta’lim maktablarida o‘quv motivatsiyasini rivojlantirish muammosi nafaqat pedagogik, balki psixologik-akmeologik jarayon bo‘lib, u o‘qituvchidan o‘quvchi shaxsiga "subyekt-subyekt" yondashuvi asosida qarashni talab etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son Farmonida ham har bir bolaning qobiliyatini yuzaga chiqarish, ta’lim sifatini xalqaro baholash dasturlari (PISA, PIRLS) darajasiga ko‘tarish maqsad qilingan.[4]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "Xalq ta’limini rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi PF-134-son Farmonida va ta’lim sohasidagi chiqishlarida: "Agar maktabda o‘quvchining ko‘zi yonmasa, u bilim olishga ishtiyoqmand

[1] UN Sustainable Development Goal 4

[2] UNESCO Futures of Education Report

[3] UNESCO (2021). *Reimagining our futures together: A new social contract for education*. Report from the International Commission on the Futures of Education. Paris, UNESCO.

[4] Lex.uz - PF-158

bo‘lmasa, har qanday zamonaviy texnologiya befoyda," — degan g‘oya ilgari suriladi. Bu bevosita o‘qituvchi-menejerning motivatorlik funksiyasini belgilaydi.[5]

O‘quv jarayonini samarali boshqarish uchun o‘qituvchi motivatsiyaning psixologik tabiatini chuqur anglashi lozim. Bu borada Yevropa psixologiya va pedagoglari maktabi vakillari tomonidan muhim tadqiqotlar o‘tkazilgan.

Edvard Desi va Richard Rayanlarning "O‘z-o‘zini determinatsiya qilish" nazariyasiga ko‘ra, o‘quvchining motivatsiyasi uchta bazaviy ehtiyojga tayanadi: avtonomiya (tanlov erkinligi), kompetentlik (o‘z kuchiga ishonch) va aloqadorlik (ijtimoiy bog‘liqlik). Agar ta’lim menejmenti ushbu ehtiyojlarni qondirsa, tashqi motivatsiya (baho uchun o‘qish) ichki motivatsiyaga (bilish ishtiyoqi) aylanadi.

Geynts Xekxauzenning "Rubikon modeli" o‘quvchining niyatdan harakatga o‘tish bosqichlarini ilmiy tushuntirib beradi. Uning fikricha, samarali boshqaruv o‘quvchida "muvaffaqiyatga erishish umidi"ni "mag‘lubiyatdan qo‘rqish" hissidan ustun qo‘yishni talab etadi.

O‘quv jarayonini samarali boshqarish uchun pedagogik menejment subyektlari (o‘qituvchilar) motivatsiyaning fundamental qonuniyatlarini bilishi shart. L.Vygotskiyning "Yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasida motivatsiyani o‘quvchining imkoniyati va topshiriqning murakkabligi o‘rtasidagi muvozanat deb tushuntiradi. Olimning fikri "O‘quvchi o‘zi mustaqil bajara oladigan va o‘qituvchi yordamida bajara oladigan darajalar o‘rtasidagi farq — motivatsiyaning eng faol nuqtasidir."deb ko’rsatiladi[6]. Boshqaruv ahamiyati: O‘qituvchi topshiriqni o‘quvchining "yaqin rivojlanish zonasi"ga muvofiq loyihalashtirsa, ichki ishtiyoq (motivation) pasaymaydi.

O‘quv jarayonini samarali boshqarish uchun pedagogik menejment subyektlari (o‘qituvchilar) motivatsiyaning fundamental qonuniyatlarini bilishi shart. Quyida ushbu sohada inqilob qilgan asosiy nazariyalar tahlil qilinadi: B.F. Skinnerning "Bixevioristik boshqaruv" nazariyasida ilmiy yoritib berilgan. Bixeviorizm maktabi motivatsiyani tashqi rag‘batlar (stimul) orqali boshqarishni taklif etadi. B.F. Skinnerning "Ijobiy mustahkamlash (baholash, maqtov) kutilgan xulq-atvorni (o‘qishni) takrorlash ehtimolini oshiradi." Boshqaruv ahamiyati shundaki, ushbu nazariya zamonaviy ta’limdagi "token-ekonomika" va reyting tizimlarining asosi hisoblanadi.7 Yana bir olim J. Brunerning "Kashfiyot orqali o‘rganish" nazariyasida o’quv mativatsiyasini ilmiy tarzida yoritib, o’z qarashlarini yoritib bergan.Jerom Bruner kognitiv pedagogika vakili sifatida o‘quvchini passiv obyektdan tadqiqotchiga aylantirishni targ‘ib qilgan.

Uning fikricha "O‘rganish — bu tayyor natijalarni yodlash emas, balki jarayonning o‘zida ishtirok etishdir. O‘quvchi ma’lumotni o‘zi kashf etsa, uning motivatsiyasi avtonom xarakterga ega bo‘ladi." Boshqaruv ahamiyati shundaki boshqaruv uslubi "ma’ruza"dan "izlanish" ga o‘zgarishi shart.

Taniqli olimlardan biri A. Banduraning "Ijtimoiy o‘rganish" va "O‘z-o‘ziga samaradorlik" nazariyasida o‘quvchining o‘z qobiliyatiga bo‘lgan ishonchini motivatsiyaning bosh mezoni deb hisoblaydi. Olimning fikri "Inson o‘zining natija bera olishiga ishonsagina, harakat qiladi. Motivatsiya — bu kutilayotgan natija va o‘z kuchiga bo‘lgan bahoning ko‘paytmasidir."

[5] Lex.uz - PF-134

[6] Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society

[7] Skinner, B. F. (1953). Science and Human Behavior

Boshqaruv ahamiyati O‘qituvchi o‘quvchining "men qila olaman" degan ishonchini shakllantiruvchi qayta aloqani (feedback) joriy etishi lozim.8

J. Kellerning "ARCS" motivatsiya modelida ahamiyatli ilmiyb qarashlar yoritilgan bo’lib, Jon Keller pedagogik dizayn va boshqaruv uchun amaliy modelni ishlab chiqqan., J.Keller motivatsiya to‘rt bosqichdan iborat bo‘lishi shart:

- Attention (Diqqat),
- Relevance (Aloqadorlik),
- Confidence (Ishonch),
- Satisfaction (Qoniqish).

Boshqaruv ahamiyati shundaki, dars strukturasini ushbu to‘rt element asosida boshqarish o‘quv jarayonining samaradorligini kafolatlaydi.9

O‘quv jarayonini samarali boshqarish (Pedagogical Management) modelida motivatsiya quyidagi beshta o'zaro bog'liq komponent orqali shakllanadi:

1. Kognitiv-intellektual komponent

Kognitiv-intellektual komponent – bu o‘quv motivatsiyasining kognitiv (bilish) komponenti bo‘lib, u o‘quvchining yangi bilimlarni egallashga bo‘lgan tabiiy ehtiyoji, intellektual qiziqishi va izlanishga moyilligini ifodalaydi. Ushbu komponent shaxsning bilishga chanqoqligi, savol berish qobiliyati, muammoli vaziyatlarga faol munosabati hamda mustaqil tafakkur yuritish xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liqdir.


-Amerikalik psixolog Jerome Bruner kognitiv rivojlanish nazariyasida o‘quv jarayonining markazida aynan kashfiyot orqali o‘rganish (discovery learning) turishini ta’kidlaydi. Uning fikricha, o‘quvchi tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki bilimni faol ravishda “kashf etuvchi” subyekt bo‘lishi kerak. Bruner nazariyasiga ko‘ra, o‘qituvchi bilimni bevosita berishdan ko‘ra, o‘quvchida savol tug‘dirishi, qiziqish uyg‘otishi va muammoli vaziyat yaratishi lozim. Ana shu jarayonda o‘quvchi mustaqil fikrlash, tahlil qilish va xulosa chiqarishga o‘rganadi.

-Shuningdek, shveysariyalik olim Jean Piaget intellektual rivojlanish nazariyasida bilish jarayonini assimilyatsiya va akkomodatsiya mexanizmlari orqali tushuntiradi. Piaje ta’lim jarayonida “kognitiv dissonans” – ya’ni bilmaslik va bilish o‘rtasidagi ziddiyat muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi. O‘quvchi mavjud bilimlari yangi axborot bilan to‘qnash kelganda ichki muvozanat buziladi va bu ziddiyatni bartaraf etish uchun faol tafakkur jarayoni boshlanadi. Demak, aynan muammoli vaziyat va bilishdagi qarama-qarshilik intellektual o‘sishning asosiy manbai hisoblanadi.

-Mazkur komponentning muhim jihatlaridan biri – muammoli ta’lim tamoyiliga tayanishidir.

[8] Bandura, A. (1997). Self-Efficacy: The Exercise of Control

[9] Keller, J. M. (2010). Motivational Design for Learning and Performance



2. Affektiv-emotsional komponent

O‘quv jarayonidagi emotsional fon o‘quvchining materialni qabul qilish darajasini belgilaydi. A. Maslov iyerarxiyasiga ko'ra, xavfsizlik va ijobiy his-tuyg'ular qondirilmagan muhitda bilim olish imkonsizdir. Kompanentning mazmuni shuki, muvaffaqiyat hissi, darsdagi ijobiy psixologik iqlim, qo'rquv va bosimning yo'qligi.

3. Ijtimoiy-kommunikativ komponent

UNESCOning "Ta'limning kelajagi" hisobotida ta'kidlanganidek, o'rganish — bu ijtimoiy jarayondir. O'quvchi guruhda o'z o'rniga ega bo'lishni xohlaydi.

Mazmuni: Jamoada ishlash, tengdoshlar o'rtasidagi sog'lom raqobat va o'zaro yordam.

4. Volyuntar-irodaviy komponent

Motivatsiya har doim ham "qiziqish" bilan bog'liq bo'lmaydi. Murakkab mavzularda o'quvchidan iroda kuchi talab etiladi. H. Heckhausen buni "Rubikon"dan o'tish deb ataydi. kompanentning mohiyati Maqsadga intilish, qiyinchiliklarni yengish, diqqatni jamlash va o'z vaqtini boshqarish.

5. Texnologik-instrumental komponent

Yangi O'zbekiston ta'lim islohotlari va raqamlashtirish sharoitida motivatsiyaning bu qismi o'quv qurollari va AKT bilan bog'liq. Kompanentning mazmuni Interaktiv doskalar, gamifikatsiya elementlari, onlayn platformalar (Maktab.uz kabi) va vizual content va darslarga texnologiyalarini o'quv dasturiga integratsiya qilish.

Quyida maqolamizni ilmiy mazmunini boyitishga hizmat qiladigon komponentlarning integratsiyalashgan jadvali keltirilgan.

1-Jadval

Komponent	Asosiy maqsad	Kutilayotgan natija
Kognitiv	Intellektual ehtiyojni uyg'otish	Mustaqil fikrlash
Emotsional	Xavfsizlik va ishonchni ta'minlash	Yuqori o'z-o'zini baholash
Ijtimoiy	Muloqot va hamkorlikni rivojlantirish	Kommunikativ kompetentlik
Irodaviy	Mas'uliyatni shakllantirish	Uzluksiz ta'lim (Lifelong learning)
Texnologik	Jarayonni qiziqarli qilish	Raqamli savodxonlik

O‘quv jarayonini boshqarishda ushbu komponentlarning birortasini e’tibordan chetda qoldirish ta’lim samaradorligini pasaytiradi. Masalan, faqat kognitiv komponentga urg'u berish o'quvchining tezda zerikishiga (burnout), faqat texnologik qismga e'tibor berish esa bilimning yuzaki bo'lib qolishiga olib keladi. BMT va UNESCO talab qilayotgan "Sifatli ta'lim" aynan mana shu komponentlarning uyg'unligida namoyon bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda o‘quv jarayonini samarali boshqarish — bu o‘quvchini majburlash emas, balki unda bilimga bo‘lgan ichki ehtiyojni uyg‘otish san’atidir. Motivatsiyasi yuqori o‘quvchi o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyatiga ega bo‘ladi, bu esa o‘qituvchining mehnatini sezilarli darajada yengillashtiradi va ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. **Mirziyoyev Sh.M.** "Yangi O‘zbekiston strategiyasi". – Toshkent: "O‘zbekiston", 2021. (Ushbu asarda ta’limni transformatsiya qilish va intellektual salohiyatni uyg‘otishning fundamental g‘oyalari berilgan).
2. **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni.** "O‘zbekiston — 2030" strategiyasi to‘g‘risida. 2023-yil 11-sentyabr, PF-158-son. (Ta’lim sifatini oshirish va o‘quvchilar motivatsiyasini xalqaro baholash mezonlari bilan bog‘lashning asosiy hujjati).
3. **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni.** "O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida". 2019-yil 29-aprel, PF-5712-son.
4. **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni.** "Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida". 2022-yil 28-yanvar, PF-60-son.
5. **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori.** "Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida". 2018-yil 5-sentyabr, PQ-3931-son.

6. **Mirziyoyev Sh.M.** "Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz". – Toshkent: "O‘zbekiston", 2016. (Ta’lim sohasidagi islohotlarning ilk tamoyillari bayon etilgan asar).\
7. **Vygotsky, L. S.** (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes.* Cambridge: Harvard University Press. (Yaqin rivojlanish zonasi nazariyasi).
8. **Deci, E. L., & Ryan, R. M.** (2017). *Self-Determination Theory: Basic Psychological Needs in Motivation, Development, and Wellness.* New York: Guilford Press.
9. **Heckhausen, J., & Heckhausen, H.** (2018). *Motivation and Action.* Berlin: Springer. (Rubikon modeli va irodaviy komponentlar).
10. **G‘oziyev E.G.** (2010). *Umumiy psixologiya.* 1-2 kitoblar. Toshkent. (O‘zbekiston psixologiya maktabining fundamental darsligi).
11. **Zimnyaya I.A.** (2010). *Pedagogicheskaya psixologiya.* Moskva: Logos. (O‘quv faoliyati motivatsiyasi strukturasi).
12. **Keller, J. M.** (2010). *Motivational Design for Learning and Performance: The ARCS Model Approach.* New York: Springer.
13. **Hattie, J.** (2012). *Visible Learning for Teachers.* London: Routledge. (Motivatsiyaning o‘quv natijalariga ta’sirini tahlil qiluvchi dunyodagi eng yirik meta-tahlil).
14. **Yoldoshev J.G‘., Usmonov S.A.** (2004). *Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish.* Toshkent: Fan.

15. **UNESCO.** (2021). *Reimagining our futures together: A new social contract for education.* [Internet resurs]: https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000379707

1.